

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAFIKOVA DILAFRUZ KAXXORALIYEVNA**

**PEDAGOGIK TA‘LIMNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA  
TALABALARNING AMALIY TAYYORGARLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2023**

UDK: : 378:371:681.4(575.1).

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**  
**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Rafikova Dilafruz Kaxxorialiyevna**

Pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi..... 3

**Рафикова Дилафруз Каххаралиевна**

Технологии совершенствования практической подготовки студентов в условиях модернизации педагогического образования..... 23

**Rafikova Dilafruz Kakhkharaliyevna**

Technology of improving practical training of students in conditions of modernization of pedagogical education..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 50

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAFIKOVA DILAFRUZ KAXXORALIYEVNA**

**PEDAGOGIK TA‘LIMNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA  
TALABALARNING AMALIY TAYYORGARLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi.**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2023**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped2578.raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy raxbar:** Karimova Muqaddas Otajonovna  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** Abdullayeva Barno Sayfutdinovna  
pedagogika fanlari doktori, professor

Erkaboyeva Nigora Shermatovna  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «29» 04 kuni soat 10<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 150100, Farg'ona sh, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy, Gender tengligi tadqiqotlar markazi. 1-qavat, majlislar zali. Tel.: (+99873) 244-44-02; faks:(+99873) 244-44-93; e-mail: [fardu\\_info@umail.uz](mailto:fardu_info@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. ARM binosi. Tel.: (+99873) 244-44-02; e-mail: [fardu\\_info@umail.uz](mailto:fardu_info@umail.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «20» 04 kuni tarqatildi.

(2023-yil «20» 04 dagi \_\_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).



**B.Sh. Shermuhammadov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

**U.Q. Maqsudov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.b.f.d (PhD)

**B.S. Siddiqov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, p.f.n., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ilm-fan va ta'lim sohasidagi o'zgarishlarni modernizatsiyalash mexanizmlari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ming yillik rivojlanish maqsadlari (Millennium Development Goals (MDGS), Jahon ta'lim forumi (World Education Forum) va Lissabon Konventsiyalari, ta'limning kompetentlik paradigmasiga o'tish, nazariya va amaliyot birligiga ustuvorlik berish, talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalarini didaktik shart-sharoitlarga moslashtirish, dasturiy-metodik ta'minotni rivojlantirish, talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlash imkoniyatlarini takomillashtirish bo'yicha yirik loyihalarni amaliyotga tizimli tatbiq etishga doir ishlar amalga oshirilmoqda.

Dunyo ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida o'qituvchilar tayyorlash (Boloniya deklaratsiyasi; Kanada provintsiyalarining ta'limni modernizatsiyalash bo'yicha hujjatlari, AQSHning ta'limni isloh qilish bo'yicha "Bizning kelajagimiz – bizning o'qituvchilarimiz" rejasi, YUNESKOning "O'qituvchilar tayyorlash bo'yicha strategiyasi", BMT tashabbusi doirasidagi "Hamma uchun ta'lim" yo'nalishi, YUNISEF, Xalqaro Mehnat tashkilotlarining o'qituvchilar tayyorlash va ularning huquqlari bo'yicha tavsiyalarini takomillashtirish pedagogik ta'lim mazmuni va o'qituvchilar tayyorlash sifatiga qo'yiladigan talablarni, talabalarning nazariy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim tizimi isloh qilinib, ISCI 88 va ISDEC 97 xalqaro standartlar asosida talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik shart-sharoitlar va zamonaviy o'quv-uslubiy ta'minotlarni tizimli va izchil kompleks joriy etishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish<sup>1</sup>" ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Natijada samarali ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi kadrlarga bo'lgan obyektiv ehtiyojini hisobga olib, talabalarning amaliy tayyorgarligini pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ - 3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 8 - oktyabrdagi PQ-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi to'g'risida", 2020 - yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil. – 39-b.

yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 21- iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-289-Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda o'qituvchilar tayyorlashning nazariy-metodologik, metodik jihatlari N.N.Azizxodjayeva, R.H.Djurayev, Sh.Q.Mardonov, N.A.Muslimov, A.R.Xodjaboyev, Sh.S.Sharipov, Sh.S.Shodmonova, N.M.Egamberdiyeva, R.Sh.Berdiqulov, S.T.Turg'unov, Sh.E.Qurbonov, O'.Q.Tolipov, M.A.Yuldashyev, A.A.Xalikov, B.B.Abdraimova, F.M.Sadikova, G.E.Karlibayevalar ta'lim jarayonini boshqarish, modernizatsiyalash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari masalalarini tadqiq etgan.

MDH mamlakatlaridan V.I.Baydenko, E.F.Zeer, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, N.F.Radionova, A.K.Markova, V.A.Slastenin, A.V.Xutorskoy, A.A.Xafizovalarning tadqiqot ishlarida bo'lajak o'qituvchilarni amaliy kasbiy tayyorlashning turli aspektlari tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlarning olimlari R.Boyasis, T.Hoffmann, R.Kuinn, G.Kulanthavel, H.Miyakawa, R.Mohan, Dj.Raven, S.Uiddet tadqiqotlarida pedagoglarni kasbiy tayyorlash, kompetentli yondashuv, zamonaviy o'qitish va pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №PZ-20170930223 "Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan. (2018-2020 yy.)

**Tadqiqotning maqsadi** pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-metodik manbalar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, o'qituvchilik kasbining rivojlanishi tendensiyasini tahlil etish asosida talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

talabalarning amaliy tayyorgarligini pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida rivojlantirish modelini takomillashtirish;

talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarini interfaol ta'lim texnologiyalari va pedagogik masalalarni loyihalash asosida takomillashtirish;

talabalarning amaliy tayyorgarligi rivojlanganligini aniqlash mezonlarini tanlash va integrativ muvofiqlashtirish orqali joriy etish;

**Tadqiqotning obyekti** pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni bo'lib, Farg'ona davlat universiteti, Andijon davlat universiteti, Toshkent viloyati Chirchiq pedagogika institutlarining jami 538 nafar talabalar ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmetini** pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalarining shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari:** Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik manbalarni o'rganish, o'quv-me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish, suhbat, kuzatish, anketa, test, modellashtirish (loyihalash), ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish hamda tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari pedagog kadrlar buyurtmachilari ehtiyoj va talablarini muntazam o'rganib borish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasi hamda pedagogik ta'lim komponentlari uzviylikini barqaror ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish modeli pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirishning o'quv-metodik ta'minoti hamda shaxsga yo'naltirilgan muammoli o'qitish va mantiqiy fikrlash jarayonlarining adekvat uyg'unligini ta'limiy maqsadlar yaxlitligiga mosligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari pedagogik jarayonning motivatsion komponentlarini rivojlantirishga ustuvorlik berish hamda talabalarni o'quv-bilish faoliyati rivojlanish traektoriyasini didaktik maqsadlarga integrativ moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning amaliy tayyorgarligi pedagogik vaziyatga mos loyihalash texnologiyasi baholashning motivatsion, kognitiv, faoliyatli mezonlari dinamikasi uyg'unligini sub'ektiv omillar produktiv ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan pedagogik mikromuhitni intensiv yaratish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

amaliy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini boyitish maqsadida "Keyslar va pedagogik vaziyatga oid masalalarni tuzish va yechish" nomli metodik ko'rsatmalar, hammualliflikda "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan va nashr etilgan;

«Ma'ruza mashg'ulotlarini zamonaviy usullarda tashkil etishning pedagogik asoslari» nomli uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan («Intellectual mulk konsultativ markazi» davlat unitar korxonasi guvohnomasi, № 004176).

talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni modeli ishlab chiqilib, uni joriy etishning o'quv-metodik ta'minoti interfaol ta'lim texnologiyalari ("Smart texnology", "mentalit" va "studes", keys-stadi, pedagogik masalalarni loyihalash texnologiyasi)ni integrativ joriy etish orqali takomillashtirilgan;

5110900 – "Pedagogika va psixologiya" ta'lim yo'nalishi tanlov fanlari uchun "Pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish" o'quv qo'llanma, o'quv kursi, uning dasturi ishlab chiqilgan va o'quv rejasiga tanlov fani sifatida kiritilib amaliyotda joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlar, tizimlilik va fanlararo aloqadorlik tamoyillaridan foydalanganligi, natijalarni tahlil qilishga yangi pedagogik paradigmalar nuqtayi nazaridan yondashilgani, talabalarning amaliy tayyorgarligi mazmuni tahlil etilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy qilinganligi va olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarning nazariy tayyorgarligini takomillashtirish muammolari aniqlanganligi, o'qituvchilik kasbi rivojlanishining ijtimoiy-madaniy tendensiyalari ochib berilganligi, pedagogik ta'limdagi zamonaviy o'zgarishlar, talabalar tayyorgarligining mohiyati, tuzilishi va xususiyatlari aniqlanganligi, taklif etilgan metodik va o'quv qo'llanmalar, yaratilgan elektron ta'lim resurslaridan oliy ta'lim muassasalarida o'qitish sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonini kompetentli, tizimli-faoliyatli, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida tashkil etish, o'quv reja va fan dasturlarini takomillashtirish, pedagogik ta'limni rivojlantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan metodika va pedagogik vaziyatga oid masalalar, amaliy didaktik topshiriqlar, mashqlar va testlar tizimi, uslubiy ishlanmalar, nazariy qoidalarni joriy etish mexanizmi, mashg'ulotlar ishlanmasi, pedagogik vaziyatga oid masalalarni loyihalash texnologiyasi, talabalar amaliy tayyorgarligi takomillashtirish darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari, amaliy tayyorgarlikni takomillashtirishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalardan davlat ta'lim standartlari, o'quv-me'yoriy hujjatlar, o'quv reja va dasturlarini, oliy ta'lim muassasalarining o'quv amaliyotini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi bo'yicha ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari pedagog kadrlar buyurtmachilari ehtiyoj va talablarini muntazam o'rganib borish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalarining

mustahkam integratsiyasi hamda pedagogik ta'lim komponentlari uzviylikini barqaror ta'minlash asosida takomillashtirishga doir takliflardan "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 - yil 25 - dekabrda 538- son bo'yruqi asosida berilgan 538-169 raqamli nashr ruxstnomasi), (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022 - yil 23 - noyabrda 02-07-4200/04-son dalolatnomasi). Natijada tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-metodik manbalar, meyyoriy-huquqiy hujjatlar, o'qituvchilik kasbining rivojlanishi tendensiyasi talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini taxlil etishga erishilgan;

talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish modeli pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirishning o'quv-metodik ta'minoti hamda shaxsga yo'naltirilgan muammoli o'qitish va mantiqiy fikrlash jarayonlarining adekvat uyg'unligini ta'limiy maqsadlar yaxlitligiga mosligini ta'minlash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-son buyruqi asosida berilgan 233-0249 raqamli nashr ruxstnomasi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022-yil 23-noyabr 02-07-4200/04-son dalolatnomasi). Natijada talabalarning amaliy tayyorgarligini pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida rivojlantirish modelini takomillashtirishga sharoit yaratilgan;

talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari pedagogik jarayonning motivatsion komponentlarini rivojlantirishga ustuvorlik berish hamda talabalarni o'quv-bilish faoliyati rivojlanish traektoriyasini didaktik maqsadlarga integrativ moslashtirish asosida takomillashtirishga doir ishlanmalar Farg'ona davlat universitetida bajarilgan bo'lib PZ-20170930223 "Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022 - yil 23 - noyabrda 02-07-son 4200/04-son dalolatnomasi). Natijada talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan o'quv kursi mazmuni va uni joriy etish dasturini takomillashtirishga erishilgan;

talabalarning amaliy tayyorgarligi pedagogik vaziyatga mos loyihalash texnologiyasi baholashning motivatsion, kognitiv, faoliyatli mezonlari dinamikasi uyg'unligini sub'ektiv omillar produktiv ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan pedagogik mikromuhitni intensiv yaratish asosida takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar "Pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 - yil 19-iyuldagi 233-son bo'yruqi asosida berilgan 233-0249 raqamli nashr ruxstnomasi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022 - yil 23 - noyabr 02-07-4200/04-son dalolatnomasi). Natijada talabalarning amaliy tayyorgarligini rivojlantirish rejalarini takomillashtirish samaradorligi ortgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjuman, shu jumladan, 4 ta respublika va 4 ta xalqaro konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 27 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shulardan 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 147 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ta'limni modernizatsiyalash sharoitida o'qituvchilik kasbi va pedagogik kadrlar tayyorlashga talablar, pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalar amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik xususiyatlari, faoliyat yondashuv talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning metodologik asosi ekanligi haqida so'z yuritilgan.

Oliy pedagogik ta'limni modernizatsiyalash ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sohalaridagi dinamik jarayonlar, milliy pedagogik ta'limning ustuvor modelini shakllantirish, innovatsion ta'lim muhitida muhim yo'nalishlarni yaratish bilan uzviy bog'liq. Pedagogik ta'limni modernizatsiyalashning hozirgi bosqichida konseptual yondashuvlar tubdan qayta ko'rib chiqilib, o'qituvchilardan qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, amaliy tayyorgarligini har tomonlama rivojlantirish, ta'lim oluvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning innovatsion metodlari va texnologiyalarini puxta o'zlashtirish va zamon talablari darajasida takomillashtirib borish talab etilmoqda.

“Modernizatsiya” atamasi turli lug'atlar (siyosiy, biznes, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, texnik lug'atlar) da har xil talqin etiladi. Modernizatsiya (moderne - yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, eng yangi, zamonaviy degan ma'nolarni anglatadi) - obyektни takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirishdir. “Modernizatsiya” atamasi pedagogik nuqtayi nazardan talqin

etilsa, u pedagogika sohasidagi o'zgarish va yangilanishlarni anglatadi. Modernizatsiya hisobiga an'anaviy pedagogik ta'lim zamonaviylashtiriladi. Pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida zamonaviy o'qituvchi shaxsining gnoseologik, aksiologik, ijodiy, kommunikativ, axloqiy komponentlarini rivojlantirish taqozo etiladi. O'qituvchilik kasbi mohiyatini tushunishga bo'lgan funksional, malakaviy, kompetentli, aksiologik va antropologik yondashuvlar mavjud.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning me'yoriy-huquqiy ta'minoti sifatida ta'limni tashkil etilishini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi, umuman, oliy ta'lim tizimini va pedagogik ta'limni rivojlantirishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini aks ettiruvchi hujjatlar to'plamiga tayanildi. Talabalarining amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy asoslarini shakllantirish va pedagogik ta'lim mazmunini zamonaviylashtirishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va "Ta'lim to'g'risida"gi asosiy qonunidan tashqari, mamlakatimiz ta'lim tizimi rivojlanishning ustuvorligi, strategiyalari va yo'nalganligini belgilab beruvchi davlat organlarining hujjatlari (konsepsiyalar, strategiyalar, rivojlanish dasturlari) dasturilamal bo'lib xizmat qildi.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili O'zbekiston Respublikasi pedagogik ta'limni modernizatsiyalash doirasida o'zgarishlarni maqsadli joriy etish orqali oliy ta'lim muassasalari "Pedagogika va psixologiya" ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarining amaliy pedagogik tayyorgarligida qanday o'zgarishlarni amalga oshirish mumkinligi aniqlash imkonini beradi.(1-jadval)

### 1-jadval.

#### An'anaviy ta'lim sharoitida va pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalar amaliy tayyorgarligining qiyosiy tahlili

| <b>№</b> | <b>Ta'lim jarayoni elementlari</b>  | <b>An'anaviy ta'lim sharoitida talabalarining amaliy tayyorgarligi</b>  | <b>Pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarining amaliy tayyorgarligi</b>  |
|----------|---|---|--|
| 1        | Maqsadlar   | Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan  | Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan  |
| 2        | Ta'lim dasturlari   | Davlat ta'lim standartlarini amalga oshirishga qaratilgan   | Kasbiy amaliy dasturlarni o'zlashtirishga qaratilgan individual yo'nalish  |
| 3        | Ta'limni shakllari  | Ta'limni auditoriyada va auditoriyadan tashqarida 60 % auditoriya mashg'ulotlari, auditoriyadan tashqari 40 % | Talabalar bilan alohida-alohida ishlash, talabalarining juft-juft bo'lib ishlash, kichik va katta guruhlarda ishlash, 4+2 dasturi asosida ta'lim olish                                   |
| 4        | Pedagogik jarayonni tashkil etish va amalga oshirish texnologiya va metodlari | Auditoriya doirasidagi an'anaviy metodlar qo'llanilgan  | Interfaol ta'lim texnologiyalari ("Smart texnology", "mentality", "studes", keys-study) va pedagogik masalalarni loyihalash hamda intellektual texnologiyalarga integrativ moslashtirish |

|   |  |   |   |
|---|--|---|---|
| 5 | Pedagoglarning ta'lim jarayonidagi o'рни | “Yetakchi”, “axborot beruvchi”, “baholovchi”  | “Hamkor”, “maslahatchi”, “yordamchi”, “vositachi”   |
| 6 | Talabalarining ta'lim jarayonidagi o'рни | “Tinglovchi”, “qabul qiluvchi”, “yod oluvchi”, ta'lim jarayonining nafaol ishtirokchisi | “Ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi”, “amaliyotchi”, “tadqiqotchi”, “ta'lim jarayonini loyihalovchi”                          |
| 7 | Ta'limni boshqarish                      | Avtokratiyaga asoslangan boshqaruv  | Demokratiyaga asoslangan boshqaruv  |
| 8 | Ta'limni rivojlantirish                  | Nazariy ta'limga ko'proq e'tibor qaratilgan   | Amaliy faoliyatga layoqatlilikni va bir vaziyatdan boshqa vaziyatga o'tishda ijodiy yondasha olish kompetentligini rivojlantirish |
| 9 | Nazorat va baholash                      | Bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganligini tekshirishga yo'naltirilgan          | Bo'lajak mutaxassisning kasbiy amaliy tayyorgarligi, kompetentligining rivojlanish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan           |

O'qituvchilik kasbi va pedagogik kadrlar tayyorlashga talablardan kelib chiqib, ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilar hamkorligiga asoslangan pedagogik amaliyotda asosan quyidagi funksiyalarga ko'proq e'tibor qaratildi:

relasion funksiya (ijtimoiylashish va ixtisoslashish, kelgusidagi kasb muhitiga kirish jarayonida talabalar tomonidan ma'lum ijtimoiy rollar va maqomlarni o'zlashtirishga qaratilgan);

regulativ funksiya (pedagogik faoliyat talablariga mos xulq-atvor standartlarini shakllantirishga, uning faoliyati va xulq-atvori ustidan ijtimoiy nazoratni amalga oshirishga qaratilgan);

aksiologik funksiya (kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabaning pedagogik faoliyatning qadriyatli asoslarini anglashi va o'zlashtirishi bilan bog'liq);

ta'limiy funksiya (talabalarda kasbiy vazifalarni yuqori sifatda bajarish uchun zarur bo'lgan fundamental va maxsus bilimlar, amaliy ko'nikmalar tizimini shakllantirishga, pedagogik faoliyat texnologiyalarini, pedagogik vaziyatga oid masalalarni tuzish va yechish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot ishlari metodikasini o'zlashtirishga qaratiladi);

tarbiyaviy funksiya (bo'lajak o'qituvchining shaxsini yaxlit rivojlantirish, uni axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, yo'nalishlarda ekologik tarbiyalash, unda ijtimoiy va axloqiy me'yorlar, qadriyatlar, ideallarga asoslangan hamda atrof-olamga va o'zlashtirilayotgan kasbga insoniy munosabatlarda namoyon bo'ladigan yaxlit dunyoqarashni rivojlantiriladi);

rivojlantirish funksiyasi (talabaning aql-zakovatini, ijodiy fikrlash qobiliyatini, individual ish uslubini, kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlarini, amaliy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishga yo'naltiriladi);

iqtisodiy funksiya (pedagogik ta'limni ta'lim xizmatlari bozorining ishlashi va rivojlanishiga faol jalb qilish, ta'lim muassasalarini byudjetdan tashqari moliyalashtirish mablag'larini topishga jalb qilish maqsadida tadqiqotchilar guruhlari, o'qituvchilar va talabalar jamoalari faoliyatini rivojlantirishga, ta'lim muassasasi moddiy ta'minotini iqtisodiy o'sishiga yo'naltiriladi);

innovatsion funktsiya (pedagogik ta'lim sifatini takomillashtirish maqsadida pedagogik faoliyat sohasidagi ilmiy g'oyalarni, texnologiyalarni, innovatsion tajribani rivojlantirish va ommalashtirishni belgilaydi).

Pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida pedagogik faoliyatning quyidagi komponentlarini takomillashtirish nazarda tutildi: amaliy tayyorgarlik (ta'lim oluvchilar faoliyati shakllarini ishlab chiqish, yuzaga kelgan muammoli pedagogik vaziyatlarni hal etish, pedagogikadagi innovatsiyalar va loyihalash texnologiyasini o'zlashtirish); kasbiy mahorat (tashkiliy ishlar, metodik tayyorgarlik va hamkorlik faoliyati); kommunikativ (pedagogning rahbariyat, hamkasblari, ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalar bilan o'zaro samimiy munosabat o'rnatishi va muntazam aloqada bo'lishi).


Dissertatsiyaning **“Pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish modeli, talabalar amaliy tayyorgarligini pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida takomillashtirishning mazmuni va metodikasi, amaliy ta'lim jarayonida pedagogik vaziyatga oid masalalarni loyihalash texnologiyasi ochib berilgan.

O'qituvchining pedagogik faoliyati tuzilmasini ishlab chiqishda ikki obyekt hisobga olindi: birinchisi - uning shaxsi, ikkinchi - kasbiy-pedagogik faoliyati. Bunday faoliyat, bir tomondan, umumlashtirilgan va bir xil asosga keltirilgan fenomen, boshqa tomondan esa, maktab ta'limining yagona umumiy maqsadlari - o'quvchilarni mustaqil hayotga va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi talablariga mos holda mehnatga tayyorlaydigan va kasbga yo'naltiradigan subyektlar (o'qituvchilar, ta'lim muassasalari rahbarlari va boshqa shaxslar) xos bo'lgan tizim sifatida qaraldi. Pedagogik faoliyat maqsadlaridan kelib chiqib, amaliy tayyorgarlik tushunchasi mualliflik nuqtayi nazaridan quyidagicha ta'riflandi: talabaning amaliy tayyorgarligi deganda uning pedagogik yangiliklar va innovatsion texnologiyalarni, davlatning ta'lim siyosatiga oid rasmiy hujjatlar, qarorlar, farmonlar mazmunini o'zlashtirish va amalda joriy etishga, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va natijalarini qayta ishlashga tayyorgarligi tushuniladi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish va tahlil qilish natijasida hamda amaliy pedagogik tajribadan kelib chiqib, pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi (1-rasm).

Talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga amaliy tayyorgarligini takomillashtirish modeli maqsad (ayni jarayonning maqsad va vazifalari), jarayon (ta'lim oluvchilar o'quv-kasbiy faoliyatining nazariy, metodik va texnologik jarayonlari), natija (baholash) komponentlaridan tashkil topgan.

Modelning maqsad komponentini amalga oshirish jarayonida talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning maqsad va vazifalari aniqlashtirildi.



**1-rasm. Pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarining amaliy tayyorgarligini takomillashtirish modeli**

Talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga amaliy tayyorgarligi takomillashtirish maqsadidan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalar belgilab olindi: amaliy tayyorgarlikni takomillashtirishning mohiyati va metodik tuzilmasini aniqlashtirish; amaliy tayyorgarlikni takomillashtirishning mazmunini tanlash va tizimlashtirish; pedagogik vaziyatga oid masalalarni tuzish va yechish bo'yicha metodik ta'minotni shakllantirish, shuningdek, talabalar amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari va imkoniyatlarini falsafiy, psixologik-pedagogik tahlil etish.

Jarayon komponentining metodologik asoslari o'zida o'qitishga shaxsga yo'naltirilgan, tizimli, kompetentli, faoliyatli yondashuvlar va pedagogik ta'limni modernizatsiyalashning huquqiy-me'yoriy ta'minoti, moddiy-texnik baza, o'quv-metodik ta'minot kabi pedagogik shart-sharoitlarni aks ettirdi. Mazmunda talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy asoslari (pedagogik ta'limni modernizatsiyalash tushunchalarning ilmiy asoslari, pedagogik vaziyatga oid masalalar turlari, ularni tuzish, loyihalash texnologiyalari, yechish mexanizmlari) keltirildi.

Ushbu komponentning metodik qismida talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga amaliy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik vaziyatga oid masalalarni tuzish va yechish, hisobotni tuzish, innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari aks etdi. Asosiy talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga amaliy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiluvchi o'quv mashg'ulotlar tashkil qilindi. Shuningdek, amaliy komponentda tayyorgarlik shakllari (nazariy, amaliy, mustaqil, individual va jamoaviy); qo'yilgan maqsadga erishish imkonini beruvchi vositalar (mantiqiy fikrlashga doir tahliliy fikrlash, kreativ fikrlash, rasmiy hujjatlar, pedagogik ma'lumotlar); amaliy topshiriqlar (testlar, pedagogik vaziyatga oid masalalar va vazifalar) tizimini, AKT, maxsus kurs va uning dasturi qo'llanildi.

Talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga amaliy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiluvchi o'quv mashg'ulotlarida interfaol ma'ruza, refleksiya, pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechish, keys-stadi, "blits-so'rov", "tayanch guruhlar", "mentalit" va "studes" va amaliy mashg'ulotlar shakllarida muammoli o'qitish, mantiqiy fikrlashga oid metodlardan samarali foydalanildi.

Natijaviy-baholash komponentida talabalarning amaliy tayyorgarligining takomillashganlik darajasini baholashning motivatsion, kognitiv, faoliyatli mezonlari tanlandi. Talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga amaliy tayyorgarligini takomillashtirish darajalarining quyidagi gradatsiyasi asos qilib olindi: past, o'rta, yuqori.

Past daraja, ya'ni bu holat bitiruvchining muayyan tayyorgarliklarsiz yoki boshqalarning ko'magisiz ishlashida ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi, u o'zining faoliyati jarayonida davlat ta'lim siyosatining rasmiy ustuvor yo'nalishlariga tayanmaydi; o'quv-pedagogik amaliyotini o'rtacha daraja, ya'ni bu holat bitiruvchining tayyorgarliklarsiz va boshqalarning ko'magisiz o'tkazisha olishiga imkon beradi, ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydi, u o'quv-pedagogik amaliyot jarayonida amaldagi me'yoriy-huquqiy bazaga muvofiq o'zining faoliyatini to'g'ri amalga oshirishini ta'minlaydi; yuqori, ya'ni eng maqbul daraja bitiruvchining

faoliyati pedagogik ta'limni modernizatsiyalashni davlat tomonidan tartibga solishning joriy tendensiyalariga yo'naltirilgan bo'lib, o'quv-pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga qaratilgan.

Talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga amaliy tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni boshqarishni uch bosqichga ajratildi.


Birinchi - maqsad bosqichida tadqiqot muammosining real holati o'rganiladi, talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga amaliy tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi ishlab chiqiladi, talabalarni amaliy kasbiy-pedagogik faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlashlari uchun oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatiladi.

Ikkinchi – amaliy-faoliyatiy bosqichida talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga amaliy tayyorgarligini takomillashtirish, pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarligini shakllantirish jarayonining mazmuniy yo'nalishlari, yani Davlat ta'lim standartining potensial imkoniyatlari, amaliy tayyorgarlikni takomillashtirish metodi, "Pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish" maxsus o'quv kursi va uni joriy etish dasturi, "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari", "Pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish" nomli o'quv qo'llanmalar, "Keyslar va pedagogik vaziyatga oid masalalarni tuzish va yechish" nomli metodik ko'rsatma, "Ma'ruza mashg'ulotlarini zamonaviy usullarda tashkil etishning pedagogik asoslari" nomli uslubiy qo'llanma ishlab chiqilib, amalda joriy etildi. Uchinchi bosqichda - o'qituvchilarning talabalarning pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga amaliy tayyorgarligini nazorat qilish natijalari bo'yicha, talabalarning amaliy tayyorgarligini pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida takomillashtirish jarayonini boshqarish to'g'risida qarorlar qabul qilinadi.

Talabalarning amaliy tayyorgarligi sifatini oshirish maqsadida pedagogik vaziyatga oid masalalarni loyihalash texnologiyasi ishlab chiqildi(2-rasm). Loyihalash vaziyatni tahlil qilish, g'oyani ifodalash, etalon variantini ishlab chiqish, maqbul variantini tanlash, maqsadni rejalashtirish, vazifalarini aniqlash, loyihani amalga oshirish, natijani umumlashtirish bosqichlaridan iborat. Pedagogik vaziyatga oid masalalar vaziyat xarakteriga ko'ra tasniflandi (real hayotiy vaziyatlarga oid, o'quv va ilmiy-tadqiqot masalalari).

Pedagogik vaziyatga oid masalalarni loyihalashda quyidagi vazifalar amalga oshirish nazarda tutildi: pedagogik vaziyat muammolari xususiyatlari, oqibatlari va ularni hal etish yechilishi yo'llarini ko'rsatib berish (muammoni tahlil etish); pedagogik vaziyat tuzilmasini, uning tevarak-atrof va ichki muhit bilan o'zaro ta'sirini aniqlash (tizimli tahlil etish); ayni pedagogik vaziyatni yuzaga keltirgan sabablarni va uning oqibatlarini aniqlash (sabab-oqibatlarni tahlil etish); pedagogik vaziyatdagi faoliyat mazmuni diagnostikasi, uni modellashtirish va optimallashtirish (prakseologik tahlil); pedagogik vaziyatni, uning tashkil etuvchilari, shart-sharoitlari, oqibatlari, ishtirok etuvchi shaxslarni baholash tizimini yaratish (aksiologik tahlil); ehtimoliy, potensial va kutilayotgan jarayonlarga tayyorgarlik (prognostik tahlil); pedagogik vaziyatda ishtirok etayotgan shaxslar uchun tavsiyalar ishlab chiqish (tavsiyalar tahlili); ayni

vaziyatdagi pedagogik faoliyat dasturlarini ishlab chiqish (dasturiy-maqsadli tahlil).



**2-rasm. Pedagogik vaziyatga oid masalalarni loyihalashning texnologiyasi**

O'quv-pedagogik amaliyot mazmunini loyihalash (uning natijasi amaliyot dasturi hisoblanadi) muayyan tartibda amalga oshirildi. O'quv-pedagogik vazifalarini taqsimlash amaliyotni tarmoqli rejalashtirishning asosiy texnologik protsedurasi hisoblanadi. Taqsimlash — bu ko'plab o'quv-pedagogik amaliyot

vazifalari va o'sha vazifalar bajariladigan ish o'rinlari o'rtasidagi muvofiqlikni topish, shuningdek, talabalarning ish o'rinlarini navbatma-navbat egallash ketma-ketligini shakllantirish, demakdir. Unda o'quv-pedagogik amaliyot jarayonida talabalar bajaradigan vazifalar va ularning ish o'rinlari algoritmi, talabalar bajaradigan ish o'rinlari ketma-ketligi, talabalarning o'quv-pedagogik amaliyoti davridagi vazifalarni bajarish tartibi keltirildi.

Talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar samarali natijalar berishi aniqlandi: pedagogik ta'limning subyekt-shaxsiy yo'nalganligi va refleksivligi; shaxsga va amaliyotga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalardan faol foydalanish; an'anaviy ta'lim shakllarining innovatsion ta'lim shakllari bilan uyg'unlikda tashkil etilishi va ta'limning real hayotiy vaziyatga yaqinlashtirilishi, pedagogik amaliyot mazmunini modellashtirish; nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash; fanlararo bog'liqlikni ta'minlash; o'quv jarayonida shaxsiy tajribalarni joriy etish; pedagogik vaziyatga oid masalalardan foydalanish.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uni o'tkazish”** nomli uchinchi bobida o'quv-pedagogik amaliyot mazmuni va uning tashkiliy-didaktik asoslari, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va baholash mezonlari, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari tahlili bayon etilgan. Tajriba-sinov ishlarining maqsadi pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida oliy ta'lim muassasalari «Pedagogika va psixologiya» ta'lim yo'nalishi talabalarining amaliy tayyorgarligini takomillashtirishga imkon beruvchi pedagogik vaziyatga oid masalalar va shart-sharoitlardan samarali foydalanish darajasini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Tajriba-sinov ishlarida Farg'ona davlat universitetidan 174 nafar, Andijon davlat universitetidan 184 nafar, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutidan 180 nafar, jami 538 nafar uchinchi va to'rtinchi bosqich talabalari ishtirok etishdi.

